

световая пластика, ритм цвета, система ракурсов и культурно-эстетическая интеграция изучаются в контексте авторства оператора. Синтез сдержанной драматургии узбекского кино и динамичной визуальной поэтики индийского кинематографа анализируется как теоретическая основа формирования нового этапа киноязыка.

SUMMARY. This article provides a theoretical analysis of the technological, aesthetic, and authorial unity within cinematic imagery, based on films produced through Uzbek–Indian collaboration. The study interprets the work of the cinematographer not merely as a technical function but as a process of creating meaning and emotional semantics through visual thinking. Compositional design, light plasticity, color rhythm, camera angles, and cultural-aesthetic integration are examined within the framework of cinematographic authorship. The synthesis of the restrained dramaturgy of Uzbek cinema and the dynamic visual poetics of Indian film is analyzed as a theoretical foundation for the formation of a new stage of cinematic language.

O‘ZBEK DRAMATURGIYASINING O‘ZIGA XOS XARAKTERLI XUSUSIYATLARI

Isokova Matluba Komilovna – dotsent,
san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Tayanch so‘zlar: teatr, dramaturg, rejissyor, repertuar, aktyor, an’ana, janr, spektakl.

Ключевые слова: театр, драматург, режиссер, репертуар, актер, ан’ана, жанр, спектакль.

Key words: theatre, playwright, director, repertoire, actor, tradition, genre, performance.

Mustaqillik barcha sohalarda bo‘lgani kabi badiiy adabiyotda ham tub burilish yasadi. Biroq bu erkinlik uni qalban va aqlan anglab yetishni taqozo etdi va millat tiklanishi yo‘lida yozuvchilar va shoirlarning og‘ir va mas’uliyatli vazifalarini yuzaga chiqardi. Bu muammolarni bartaraf etishga har bir ijodkor o‘z dunyoqarashi va imkoniyati doirasida yondashdi. O‘z vaqtida dramaturgiya sohasida ham yangi-yangi ufqlar ochilishiga, shakl, mazmun va janr borasida o‘ziga xosliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, mustaqillikning ilk yillarida o‘zlikni anglashga, cheksiz faxr va iftixor tuyg‘ularini shallantirishga xizmat qiluvchi ulug‘vor tragik asarlar kutilgan bir vaqtda, tragediyaning xos unsurlari bo‘lgan ulug‘vorlik, qahramonlik, vatanparvarlik kabi sifatlarni o‘zida jo etgan tarixiy mavzudagi dramalar yuzaga keldi.

Drama janri esa yuqorida aytganimizdek, tragik unsurlar bilan boyib, o‘ziga xos yo‘ldan bordi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu janrdagi asarlar son va sifat jihatdan tahsinga loyiqdir. Dramaturgiyaga xos bo‘lgan fazilatlarining aksariyati dastlab drama janrlariga mansub asarlarda yaqqol ko‘zga tashlandi. Bu janrdagi pyesalar son va sifat jihatdan, davrning dolzarb muammolarini oydinlashtirishdagi xizmati ulug‘vorligi nuqtai-nazaridan ham diqqatga loyiqdir.

Drama janridagi tarixiy mavzudagi asarlarning maydonga chiqishi orqali o‘tmishimizda boy meros qoldirgan olimu kashfiyotchilar merosi

o‘rganilib sahnaga chiqishi quvonarli bo‘ldi. Davrimizning zabardast dramaturglaridan Hayitmat Rasul “Piri koinot” asari insonni tarixiy davrlardagi takrorlanmas davr shiddatlari, insonlarning asrlar oshsada, turli yo‘sindagi qilmishlarini kuzatib xulosa qiladi.

Dramaturg asarga Turkiston xalqlari tarixida shonli sahifalar qoldirgan, IX asrda yashagan Sharqning buyuk astronom olimi, munajjim Ahmad al – Farg‘oniy hayotining Bog‘dodda kechgan damlarini asos qilib olgan. Tarixiy manbalardan ma‘lumki, al – Farg‘oniy ko‘hna Farg‘onada tavallud topib, ilm olish maqsadida IX asrning ma‘lum va mashhur dorilfununi Bog‘dod hukmdori Ma‘mun huzurida tashkil etilgan “Ma‘mun akademiyasi”ga borgan. U ayni paytda o‘zining mehnatsevarligi, zukkoligi, ilmga chanqoqligi bilan ulkan yutuqlarga erishgan va zamondoshlaridan har jihatdan ilgarilab ketgan. Uning “Osmon jismlari harakati to‘g‘risidagi kitobi” o‘z davri astronomik bilimlarining qomusi bo‘lgan. Shu va boshqa bir qancha ma‘lumotlar Farg‘oniy shaxsi real shakllanishida, uning o‘ziga xos jihatlarining namoyon bo‘lishida asosiy omil vazifasini o‘tadi. Pyesadagi Farg‘oniyning yetuk olimligi, uning muvaffaqiyatlari ayni haqiqatdir. Muallif Farg‘oniyi yetuk olim va shu bilan birga sevish va sevilish baxtiga muyassar bo‘lgan oddiy inson sifatida shakllantirdi.

Asar eng avvalo xarakterlarning real, yirik, jonliligi bilan diqqatni tortadi. Dramatik konfliktning pishiq va haqqoniyliги, tugun va

yechimda muallifning ustaligi drama saviyasini ko'tarib turadi. Asar syujetining ixchamligi, dramatik harakatning muttasil keskinlikda kechishini, ziddiyatning haqqoniy namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Asar muqaddimasi Farg'oniyning oy tutilishi haqidagi ilmiy farazining ijobat bo'lishi bilan boshlanadi. Mana shu kichik bir sahna Farg'oniya va u bilan qarama – qarshi bo'lgan kuchlar – Al Zokir, Abu Mansur va Mavrudiy ziddiyatini ko'rsatib beradi. Birinchi ko'rinishdagi Halifa Ma'munning mutaassib olim Al Zokir bilan suhbat, halifaning Farg'oniya bo'lgan yuksak ishonch va e'tiqodi uning Farg'oniya nisbatan bo'lgan nafratini yanada oshiradi. Misr sultonining o'ng qo'l vaziri, Janobi Al-Fotihning, sovg'a-salomlar bilan tashrifi va Farg'oniyni ulug'lab aytgan so'zlari, misrlik shoira Firdavsning Ma'mun va Farg'oniyni bir safga tizib aytgan ash'ori shusiz ham olov olib turgan mutaassib Al Zokir hasadini yanada kuchaytiradi. Shu o'rtada Farg'oniya va Al Zokir o'rtasida kuchli konflikt paydo bo'ladi. Birisi olim, ikkinchisi johil inson sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Bularning barchasi Farg'oniyning Bog'dodga kelguniga qadar ilm osmonida barq urib turgan Al Zokirni goho zimdan, goho oshkora kurash olib borishga undaydi. Dramaturg Al Zokir xarakterini oydinlashtirishda talaba Dilmurod obrazidan ustalik bilan foydalanadi. Bu surat bilan bog'liq sahnada o'z aksini topgan. Yosh Dilmurod sevgilisi Guharga o'zi chizgan suratni berar ekan, bu ikki yoshni Al Zokir qo'lga tushiradi. Islom aqidasi ko'ra jonli mavjudot tasvirini chizish gunoh sanaladi. Uning bir kun kelib jon talab qilishi haqidagi gaplar keng tarqalgan bir paytda Dilmurod sevgilisi Guhar suratini chizishga jur'at qilgan. Bu hol ayni muddao edi. Al Zokir ikki yoshga "muruvvat" qilish evaziga ulardan Farg'oniyni olim emas, ko'chirmachi, yolg'onchi inson ekanligini xalq orasida tarqatishini talab qiladi. Natijada Al Zokir o'zining g'alamiz maqsadiga erishish uchun hech narsadan, hatto imon e'tiqodidan ham voz kechishga tayyor munofiq bir inson sifatida namoyon bo'ladi. Drama shu zayilda rivojlanib, konflikt taranglashib boradi. Kuchlar nisbatan tengligi asar voqealarini yuqori suratda kechishini ta'minlaydi.

To'rtinchi ko'rinishda Muhtasib tomonidan Farg'oniyning g'ayridinga dil berganligi uchun kofir deya haqorat qilinishi, so'ngsiz malomat toshlarining otilishi, ustiga-ustak talaba Dilmurodning ham haqoratlari olim Farg'oniyni chuqur iztirobga soladi. Buni Farg'oniya tilidan

aytilgan quyidagi jumladan ham anglash mumkin.

“Al – Yoqub! Al – Yoqub! Do'stim Al – Yoqub!..

Bu qanday ko'rgulik? Qanday ko'rgulik?..
Begonalar aro yashash naqadar
Ayanchli, alamli, og'ir ekanin
Endigina bildim, hozir angladim!...”

Voqealar rivoji shiddatla borar ekan, Al Zokir tomonidan Farg'oniyning shogirdi Al Yoqubning zaharlanib telba, aqlan majruh qilinishi uni yanada iztiroblar komiga tortadi.

Voqealar rivojida Dilmurodning Farg'oniya qaratilgan hujumdan o'lishi, drama ipini yanada taranglashtiradi, Al Zokir, Mavrudiy, Abu Mansur va Muhtasib kabilarning Halifa Ma'munga Farg'oniya ustidan arzi, ochiqdan – ochiq tuhmat-bo'xtonlari asarni kulminatsiyaga olib keladi. Bino tashqarisida xalq adolat qaror topishini, shayx ul Islom tomonidan shakkok deb tan olingan “jinoatchi”ni jazo olishini intiqlik bilan kutmoqda...

Asar so'nggida dramaturg hayot falsafasini kichik bir epizodda ko'rsatib o'tadi. U Farg'oniya tilidan shunday yangraydi:

- “Bu “Kurrai arz” shakli zamin.

Sizu biz yashab turgan Yerning shakli.

Mana shu Yer koinotda eng kichik yulduzdan ham kichik ekan, Panohi Oliy! Bu jism o'z o'qi gardida aylanish bilan ovora, biz odam bolasi esa undagi murakkab hayot gardida aylanish bilan bandmiz. Biz nizolar, kurash to'fonlari ichra g'arqmiz. Yer esa aylanaveradi! Birimiz yaratish, birimiz yo'qotish dardida yonamiz, Yer esa aylanaveradi! Ba'zi birimiz saxovatga eshik ochsak, ba'zi birimiz shu saxovat kushandasimiz, ammo Yer aylanaveradi! Aylanaver Yer! Aylan, ey zamin! Odam bolasi insofu diyonat tilab, o'z o'qing gardida charx urib aylan! Quyoshga intil sen, Sahiy quyoshga”.

Asar tarixiylik kasb etsa-da, unda o'lmas va abadiyatga muhrlangan tuyg'ular, xususan muhabbat mavzusi dramaning qon tomiriday ildiz otgan. Dramaturg va shoir Usmon Azimning har bir asarida mavzu uning tili qahramonlar xarakteri alohida e'tiborli. Adibning “Bir qadam yo'l” pyesasi drama janriga xos yetuk asarlardan biridir. Asar kuchli dramatism ruhi bilan boyitilgan. Muallif tomonidan chizib berilgan dramatism chizig'i asar voqealarini o'ziga mushtarak etadi. Bunda kolxoz raisining otasining iztiroblari va uning kichik nabirasi qismati asar g'oyaviy mag'zini tashkil etadi. Bir umr halol mehnat qilgan cholning orzusi qadimiy va ko'hna Samarqandni bir bor ko'rish ilinjida o'g'illarini

mehriga tashna Otaning aravaga mixlanib o'tirishi "chorasizligidan" dalolatdir. Qishlog'idan Samarqandgacha bir qadam yo'l. Otaning bu istagi go'yoki o'g'illari uchun Qarilikning erkligi, injiqlikning belgisidek tuyiladi. Shokirboyvachchaning otasini bu orzusini ushaltirishga bergan va'dasi, qulayotgan devorga qo'yilgan tirkak kabi cholni hayotda ushlab turibdi. Aslida uni hayotda ushlab turishga hech

narsa qodir emas. Ammo har narsaning o'z vaqti soati bor. Asar konflikti ham shu ikki obraz qismati bilan yo'g'rilgan holda yuzaga keladi.

O'zbek dramaturgiyasida o'ziga xos xarakterli jihatlarining o'rni va ahamiyati betakror qahramonlar xarakteri, voqealar ketma-ketligi, so'zning badiiylklari dramaturg tomonidan alohida e'tiborga olinadi. Mavzu va g'oyaning o'rinli qo'llanilishi asarning yutug'i hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov. T. "Tarix va sahna". G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 1998.
2. Toshpo'lat Tursunov "Turg'un Azizov", "Yangi asr avlodi", Toshkent 2004.
3. Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi. darslik-monografiya. – Toshkent 2009.
4. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M. T., Muxtorov I. A. O'zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – Toshkent 2003.

REZYUME. O'zbek dramaturgiyasining o'ziga xosligi avvalo asarning janr jihatdan puxta ishlanganida bo'lsa, dramaturg yozgan pyesada yetakchi mavzu ham e'tiborli albatta. Ushbu maqolada dramaturgiyada xarakterli xususiyatlar orqali turli janrlardagi asarlarning sahnaviy talqini e'tiborga olinadi.

РЕЗЮМЕ. Самобытность узбекской драматургии, прежде всего, проявляется в жанровом совершенстве произведения, а также в актуальности ведущей темы, раскрытой драматургом в пьесе. В данной статье рассматривается сценическая интерпретация произведений различных жанров через характерные особенности драматургии.

SUMMARY. The uniqueness of Uzbek dramaturgy is primarily expressed in the well-developed genre of the work, as well as in the significance of the main theme presented by the playwright. This article examines the stage interpretation of works of various genres through the characteristic features of dramaturgy.